
Tumanimizda “Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan yurt” shiori ostida gala-konsert dasturi bo‘lib o‘tdi.

“Ma‘naviyat festivali” doirasida tumanimizga Toshkent shahridan ilm-fan, madaniyat, san‘at, adabiyot va badiiy ijod vakillaridan iborat guruh tashrif buyurdi. Mehmonlar ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar doirasida aholi vakillari bilan uchrashib, yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda erishilayotgan yutuqlar haqida suhbatlar qildilar.

Kuni-kecha ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar dasturi doirasida tumanimizda elimiz ardog‘idagi taniqli san‘atkorlar ishtirokida katta gala-konsert dasturi bo‘lib o‘tdi. Poytaxtdan tashrif buyurgan hamda viloyatimiz san‘atkorlari, el ardog‘idagi shoir, yozuvchilar, ma‘naviyat targ‘ibotchilari va so‘z ustalari o‘zlarining chiqishlari bilan barchaga hush kayfiyat, qalblarga bir olam shodlik ulashdi.

2022-06-01 14:44:49